



№01/2023



M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

Litsenziya raqami: №095310



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 204 sahifa, 30-ortyabr, 2023-yil.

TAHRIR HAY'ATI:

Qirg'izboyev Abdug'afkor Karimjonovich	Tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinbosari
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	Pedagogika fanlari bo'yicha doktori, professor	Bosh muharrir o'rinbosari
Jamoldinova Odinoxon Rasulovna	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti gedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	Pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	Pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Ne'matov Shuhrat Ergashovich	Pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Sevin Ochilov	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basini metodisti	A'zo
Dilnoza Bekmuradovna Yuldasheva	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

Muassis: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



MUNDARIJA

Keng ko'lamli islohotlarimiz	6
Qirg'zboyev Abdug'affor Karimjonovich, pedagogika fanlari doktori, professor	
Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО	8
Хамдамова Махзуна Турсуновна, доктор философии по педагогическим наукам (PhD);	
Methodological advancements in the English instruction of preschoolers	12
Shohsanam, Asiljonova Doniyorovna, PhD student	
Yangi O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar	15
D. R. Babayeva, pedagogika fanlari nomzodi, professor	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o'zaro ta'siri	18
Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi, stajor-tadqiqotchi	
Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta'lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish	22
Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna, mustaqil izlanuvchi	
Неполные предложения как объект исследования	25
Ибатова Амира Шавкатовна, исполняющий обязанности доцента (PhD); Юлдашева Дилноза Бекмуродовна, доцент кафедры	
Lider va uning fazilatlarini xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida	29
Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi, doktorant	
Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o'rni	33
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi, magistrant; Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich, talaba	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishda STEAM ta'lim texnologiyasining ahamiyati	35
Kojageldiyeva Aziza Muxsum qizi, kafedra o'qituvchisi	
Maktabgacha ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari	38
Marasulova Dono Nigmatullayevna, p.f.f.d. (PhD)	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma'naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari	43
B. O. Matchanov, mustaqil izlanuvchi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari	47
Muratova Munavvar O'rol qizi, kafedra o'qituvchisi	
Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс	51
Нажмиддинова Гулноза Одидовна, PhD, докторант (DSc)	
Bo'lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini oshirish mexanizmlari	54
Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, kafedra o'qituvchisi	
Методика развития речи дошкольников	58
Очилова Хилола Шералиевна, преподаватель кафедры	
Okul öncesi dönemde bulunan çocuklar için anne-babaların çocuk kitapları seçim kriterlerinin incelenmesi	62
Elem Gökteş	

Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника	71
Равшанова Наргиза Норбоевна, доктор философии по педагогическим наукам (PhD); Отешова Гульнур Кабуловна, магистрант	
Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях.....	75
Р. Хайдаров, докторант	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	79
Radjarova Zuxra Tirkasheva, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей	84
Шоиства Садикова, научный руководитель; Шохсанам Тохирова, магистрант	
Maktabgacha ta'limda yuksalish	88
Shirbachevaya Gulchehra Shakirovna; Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar	90
Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna, kafedra o'qituvchisi	
Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher	93
Tokhirova Shokhsanam, Researcher	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishning metodik shart-sharoitlari	98
X. M. Xo'jamatova, kafedra katta o'qituvchisi	
Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarining o'rni	103
Yakubova Zilola Zikirovna, kafedra o'qituvchisi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish.....	106
Zilola Alisherovna Mirkasimova, tayanch doktorant	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash	108
Musratova Zilola Ulugbekovna, doktorant	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabati	112
Alimova Gulchehra Qobilovna, kafedra dotsenti; Sadikova Durdona Shohasan qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari	116
Teshabayeva Zamira Sobirovna, p.f.f.d (PhD), kafedra dosenti	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati	119
Maxmudova Dilrom Axmadovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'nalishlari	121
Nabiyev Erkin Esanovich; Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna	
Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника	124
Отешова Гульнур Габилловна, аспирантка	
Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari.....	128
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent	
Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators.....	131
Dilnoza Furkatovna Khalilova	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	134
Jumanova Fatima Uralovna, p.f.n. dotsent	
Talabalarining kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi	137
Kamalova Gavhar Akbarovna, kafedra o'qituvchisi	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Teshabayeva Zamira Sobirovna

P.f.f.d (PhD), CHDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida dosenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining ahamiyati, sahnalashtirilgan o'yin faoliyati shakllari turlari va ularni tashkil etish usullari bayon etilgan.

Ta'riflab o'tilgan tafsirlar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglari shuningdek metodistlarning ish faoliyati tajribalarini o'rganish tufayli yoritildi.

Kalit so'zlar: sahnalashtirish, o'yin faoliyati shakllari, ijodiy faoliyat, faollashuv, tashabbuskorlik, emosional rivojlanish, ijrochilik.

Abstract: This article discusses the importance of staging in preschool education, the types of staged play activities and ways to organize them.

The descriptions were clarified due to the study of the experience of teachers of preschool education, as well as methodologists.

Key words: staging activities, forms of play activities, creative activity, activation, initiative, emotional development, performance.

Аннотация: В статье обсуждается важность постановки в дошкольном образовании, формы постановочной игровой деятельности и способы ее организации.

Описания уточнены благодаря изучению опыта педагогов дошкольного образования, а также методистов.

Ключевые слова: постановочная деятельность, формы игровой деятельности, творческая активность, активизация, инициативность, эмоциональное развитие, перформанс.

KIRISH

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-ma'naviy islohotlar, fan-texnika va ishlab chiqarishning keskin rivojlanib borayotganligi – jamiyat talablariga javob bera oluvchi shaxsni tarbiyalash masalasini kun tartibiga ko'ndalang qo'yimoqda. Kelajak poydevori bo'lgan, har jihatdan mas'uliyatli, ma'naviy yetuk, bir so'z bilan aytganda jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'sha oladigan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi uygun rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi, chunki maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning kelgusidagi butun hayotini belgilab beradi. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim-tizimini rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarorlari va Farmonlari qabul qilindi.

Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi qarorida milliy-madaniy, tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonunning 4-moddasida har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi keltirilgan.



Maktabgacha yosh-shaxsning dastlabki kamol topish davridir Har bir bola shaxsining rivojlanishi, jumladan ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda uni adabiyotga, san'atga qiziqish va xalqimizning boy madaniy merosiga nisbatan hurmatni tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishda pedagog yetakchi ro'l o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyaning turli metodlarini qo'llash va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida belgilab berilganidek, o'quv tarbiyaviy faoliyatning o'zaro uyg'unligini taminlash, ularni o'yin tarzida tashkil etish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirilgan faoliyat shakllarini tahlil qilishdan asosiy maqsad, maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatiga oid mamlakatimiz va xorijiy olimlarning pedagogik g'oyalari o'rganish hamda amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID IZLANISHLAR TAHLILI

Maktabgacha yosh-shaxsning dastlabki kamol topish davridir Har bir bola shaxsining rivojlanishi, jumladan ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda uni adabiyotga, san'atga qiziqish va xalqimizning boy madaniy merosiga nisbatan hurmatni tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishda pedagog yetakchi ro'l o'ynaydi. Taniqli rus ma'rifatchisi va pedagogi, bolalar teatri asoschisi A. T. Bolotovning fikricha, "spektaklga tayyorgarlik davrida oila a'zolari va kattalar tomonidan ko'rsatiladigan madad bola tarbiyasida alohida ijobiy rol o'ynashi mumkin" [4; 131-b].

XIX-XX asrlarda pedagogika sohasida teatrga axloqiy va badiiy-estetik tarbiyaning asosiy elementi sifatida qaralar shakllanadi.

N. A. Berdayev, V. M. Solovyov kabi ijodning psixologik asoslarini tadqiq etgan, ijodkor shaxsning shakllanishi muammolarini o'rgangan mutafakkirlarning falsafiy asarlari teatr pedagogikasining shakllanishiga turtki bo'ldi.

Rus shoiri, adabiyotshunos, teatr pedagogi Nikolay Nikolayvich Baxtin bolalarda "dramatik instinkt" mavjudligini e'tirof etdi. Bu esa teatr san'atining muhimligini yana bir bor eslatdi. Baxtin bolalardagi ushbu "instinkt"ni rivojlantirib borishni tavsiya etdi. U oilada ulg'ayayotgan bolalarga qo'g'irchoq teatri, komik teatr, soya teatrlarining mos kelishini va ularda ertak, tarixiy, etnografik va maishiy mazmundagi pyesalarni qo'yish mumkinligini ta'kidlab o'tgan. Uning fikricha, teatrdagi o'ynash 12-yoshgacha bo'lgan bolaning bo'sh vaqtini foydali o'tishiga xizmat qiladi [5; 182-b].

Kattalarning to'g'ri boshqaruvi ostida bolaning dramatik o'yinga bo'lgan qiziqishi uning rivojlanishi uchun ulkan naf keltirishi mumkin.

Zamonaviy bosqichda bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortgan. Voqelikka bo'lgan faol ijodiy munosabat, insonga va insonparvarlikka yo'naltirilgan pedagogik dasturlar va texnologiyalar hozirda ilg'or g'oyalar deb hisoblanmoqda. Pedagog-psixologlar san'at yordamidagi estetik tarbiyaga didni, hissiyotni rivojlantiruvchi, tabiat, borliq va o'z-o'ziga munosabatni shakllantiruvchi jarayondek baho berib, uning qimmatliligini alohida ta'kidlaydilar.

NATIJA VA MULOHAZALAR

O'rganilgan adabiyotlar va kuzatuvlarimizning ko'rsatishicha teatr san'ati bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashadi, teatr san'ati bilan muloqot qilib borar ekan, bolalar bir-biriga nisbatan toqatli, kelishuvchan, og'ir-bosiq bo'lib, o'zini tartibga solib oladi. Teatr maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari va kayfiyati (ruhiyati) ga kuchli ta'sir o'tkazadi, ularning fikrlash doirasini kengaytirib, nutqini boyitadi, axloqiy-ma'naviy tasavvurini shakllantiradi, intellektual qobiliyatlarini oshiradi. Teatr bolani ma'naviy tarbiyalaydi. Teatr – sehrlil olam, unda bola o'ynab, quvonadi, o'ynab atrof olamni o'rganadi, yani uning ichki olami boyiydi. Bolada ijodga e'tibor, qiziqish, intilishning namoyon bo'lishi uning taassurotlarini yangilaydigan emotsional undovlarni talab qiladi. Bu borada teatrlashtirish faoliyatining juda katta ijobiy ahamiyatini alohida ta'kidlash mumkin. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan bu kabi faoliyat bola hayotiga yangi mazmun olib kiradi. Quvonch hissini uyg'otib, barcha kuch va qobiliyatlari, jumladan, nutqiy rivojlanish qobiliyatlarini faoliyatga safarbar qilishga undaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirilgan o'yin faoliyati shakllari bir necha xil bo'lib u o'zining barcha turlari bilan bolalarni badiiy tarbiyalash, estetik rivojlantirishga ko'maklashadi. Ularni yangi taassurotlar bilan boyitadi, avval egallagan bilimlarini mustahkamlaydi, faollashtiradi, tashabbuskorligi, nutqi, badiiy didini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini o'tkazish vaqti belgilanmagan, ushbu faoliyatni pedagogik faoliyatdan kelib chiqib ya'ni integrativlik prinsipiga tayangan holda tashkil etish mumkin.

Quyida maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishning turli shakllarini keltirib o'tamiz:

Ta'limiy faoliyatlar. Ta'limiy faoliyat bir vaqtning o'zida ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini bajarishi kerak. Uning mazmuni, shakli va metodi uch maqsadga erishishi uchun qaratilgan bo'lishi lozim: nutq va teatr-ijrochilik faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish; ijodkorlik muhitini yaratish; bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlantirish

Ko'ngilochar o'yinlar. Ko'ngilochar o'yinlar san'atning barcha shakllarini birlashtiradi. Ularning ko'p turlari mavjud bo'lib konsertlar, qo'girchoq teatri tomoshasi, bolalar, tarbiyachi-xodimlar va ota-onalar hamkorligida tayyorlangan sahna teatri yoki qo'girchoq teatri tomoshalarini o'z ichiga oladi.

Bayramlar. Tashkil etilgan bayramlar bolalarga quvonch bag'ishlab, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatini berishi lozim.

Bayramlar bolalarning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladigan taassurotlar manbayidir. Shu sababli bayramga tayyorgarlik jarayonida, eng avval, yaxshi tayyorlangan senariy, har bir bolaning bayram tadbirlaridagi ishtiroki, kayfiyati va san'at turlarining o'zaro uyg'unligiga e'tibor qaratish muhim.

Professional teatr studiyalarining namoyishlari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida professional teatr studiyalarining (sirk, qo'girchoq teatri, sahna teatri) namoyishlarini tashkil etilishi.

To'garak ishi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sahnalashtirilgan faoliyatini tashkil etishning ya'na bir shakli to'garak ishidir. To'garak ishlari quyidagi masalalarni hal etishda yordam beradi: bolalarning fantaziyasi, tasavvuri, barcha turdagi xotiralari va ijodkorliklarini (badiiy nutq, musiqali o'yin, raqs, sahna) rivojlantiradi.

Agarda maxsus teatr to'garagi tashkil etilgan bo'lsa, teatr to'garagi rahbari ishtirok etishni xohlagan bolalar bilan ish olib boradi. Bunda rahbar rejissor bo'ladi bolalar esa aktyor vazifasini bajaradi. Rahbar o'z oldiga maqsad qo'yadi bolalar bilan ishlashda ssenariy, rejissorlik va sahnalashtirilgan ish bilan chegaralanmaslik, maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tadigan davri davomida bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishi lozim.

Butun spektaklning sahnalashtirish ishi esa maxsus mashg'ulotlarda, haftada bir marotaba 30–40 daqiqa davomida kunning birinchi yoki ikkinchi yarimida o'tkaziladi. Mashg'ulotlarni tashkil qilish jarayonida shunga e'tibor qaratish joizki, agar bolada bilim ko'nikma bo'lsa-yu, qiziqish, xohish bo'lmasa faollik bo'lmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan sahnalashtirish faoliyatini rivojlantirish mazmuni quyidagilardan iborat bo'lishi lozim degan xulosaga kelish mumkin:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy faolligi uchun sharoit yaratish;
- Tarbiyalanuvchilarning san'at sohasiga doir qobiliyatlarini aniqlash va shakllantirish;
- Pedagogik jarayonda, faoliyat markazlarida teatrlashtirilgan va boshqa faoliyat turlarining doimiy aloqadorligi uchun sharoit yaratish;
- Bolani ma'naviy tarbiyalash, atrof-olam bilan tanishtirish, emotsional olamini boyitish, ijodga etibor va qiziqish uygotish;
- Kommunikativ munosabatlarni rivojlantirish, o'rtoqlarini eshita olish va o'zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalarini rivojlantirish;
- Bolalarni teatr madaniyatiga oshno qilish;
- Xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'lish va ularni qadrlashga o'rgatishdan iborat.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M., Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisidagi qarori. 09.09.2017 PQ–3261-son O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 984-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. 16.12.2019 O'RQ–595-son Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 4160-son, 4-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Maktabgacha ta'lim vazirligi MH–1- son buyrug'i. T.: 2018. 18 iyun. 31b.
4. Болотов Андрей Тимофеевич. Избранное.-- Псков: изд-во ПОИПКРО, 1993. http://az.lib.ru/b/bolotow_a_t/text_0020.shtml
5. Мурдалов М. М. Провинциальный библиограф: Николай Николаевич Бахтин. – М.: Издательские решения, 2020. – 518 с. – ISBN 978–5–4490–5688–7.
6. Qodirova F. R., Toshpo'latova Sh. Q., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika / O'quv qo'llanma. T.: Ma'naviyat, 2013.137 b.
7. Teshabayeva Z. S. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish / Darslik T.: MALIK PRINT, 2022. 72–74 b.
8. Усова А. П. Обучение в детском саду / Под.ред. А. В. Запорожца. –3 еизд. Испр -М.: Просвещение, 1991. – 168 с.